



NAVOIY VILOYATI TOMDI TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 11-avgust

115-5-75-Q/25

Tomdi tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 31 iyuldagi “Tadbirkorlik sub’ektlariga tutash hududlarni mavsumiy foydalanishni tashkil etishni yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 478-son qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to‘rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shartsharoitlar yaratish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 31 iyuldagi “Tadbirkorlik sub’ektlariga tutash hududlarni mavsumiy foydalanishni tashkil etishni yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 478-son va Navoiy viloyati hokimining 2025 yil 7 avgustdagi 176-5-0-Q/25-sonli qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan quyidagilar:

2025 yil 1 oktyabrdan boshlab umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi tadbirkorlik sub’ektlari uchun o‘ziga tegishli bino va inshootlarga hamda yer uchastkalariga tutash bo‘lgan, davlat organlari va tashkilotlariga doimiy foydalanishga berilgan aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yer uchastkalaridan (sog‘liqni saqlash, ta’lim va maktabgacha ta’lim tashkilotlariga tegishli yer uchastkalari bundan mustasno) mavsumiy umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat

ko'rsatish faoliyatini (keyingi o'rinlarda - tijorat faoliyati) amalga oshirish uchun haq evaziga ijara huquqi asosida foydalanish tizimi amaliyotga joriy etilganligi;

Umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga tegishli bino va inshootlarga hamda yer uchastkalariga tutash hududlardan tijorat maqsadlarida mavsumiy foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosarlari (O.Madenov, R.Qunaqbaev), tuman soliq inspeksiyasi (K.Xolmuminov), Kadastr agentligining tuman bo'limi (O.Hamdammov), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (G'.Sanaqulov) hamda tuman ichki ishlar bo'limi (X.Juraev) bilan birgalikda:

a) o'ziga tegishli bo'lmagan yer uchastkasida norasmiy tarzda tijorat faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatini va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni (joylashgan joyi, faoliyat turi, egallangan yer maydoni) quyidagi bosqichlarda xatlovdan o'tkazsin:

birinchi bosqich – tumandagi markaziy ko'chalarda 2025-yil 1-sentabrga qadar;

ikkinchi bosqich – qolgan ko'chalarda 2025-yil 1-oktyabrga qadar.

b) 2025-yil 1-oktabrdan boshlab xatlov natijasida aniqlangan obyektlarning mazkur qarorda belgilangan tartibda qonuniy faoliyat yuritishi yoki hududning bo'shatilishini ta'minlab borsin.

Bunda joylashtirish sxemasiga muvofiq bo'lgan tijorat faoliyati ob'ektlari "dizayn-kod"ga asosan loyihalar tasdiqlangunga qadar ushbu bandga ko'ra faoliyati qonuniylashtirilib, ijara shartnomasi tuzilgan obyektlarda tadbirkorlar tomonidan har qanday qo'shimcha qurilishlar, maydon, fasad va mavjud engil konstruksiyalarning konstruktiv elementlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmasligi, shunday ishlar amalga oshirilgan taqdirda, tutash maydonda joylashgan obyektlar belgilangan tartibda buzilishi hamda yangi shartnoma tuzilmasligi belgilab qo'yilganligi inobatga olinsin.

4. Vazirlar Mahkamasining qarori bilan quyidagi tartib o'rnatilganligi inobatga olinsin:

a) 2025-yil 1-oktabrdan boshlab, har yili 1-yanvarga qadar tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi, kadastr, soliq idoralari takliflari asosida, tuman (shahar) hokimlarining qarori bilan kelgusi yil uchun tuman (shahar) hududidagi aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yer uchastkalarida tijorat faoliyati obyektlarini joylashtirish sxemasi tasdiqlanadi;

b) 2026-yil 1-fevralga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tomonidan tasdiqlanadigan reja-grafikka

asosan quyidagi organlar tomonidan o'z hisobidan (yoki mazkur qarorga asosan qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi organlariga tushadigan mablag'lar hisobidan keyinchalik to'lab berish sharti bilan) tijorat faoliyati obyektlarini ko'cha va binolarga mos arxitektura qiyofasida hamda aholi uchun qulay va xavfsiz qilib loyihalashtirishga doir yagona talab va tavsiyalar ("dizayn-kod") ishlab chiqilib, tasdiqlanadi:

hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashlari tomonidan – Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatlar bo'ysunuvidagi shaharlar uchun;

tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limlari tomonidan – boshqa aholi punktlari uchun;

v) ko'chalar nomi ko'rsatilgan holda tijorat faoliyati obyektlarini joylashtirish sxemasi hamda "dizayn-kod"lari mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi organlarining rasmiy veb-sahifalariga joylashtiriladi;

g) tadbirkorlarning murojaatlariga muvofiq tijorat faoliyati obyektlarini joylashtirish sxemalariga tuman (shahar) hokimlari qarorlari bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin;

d) ijara shartnomalari doimiy foydalanishga berilgan yer uchastkasini tadbirkorlik subyektiga tijorat faoliyatini amalga oshirish uchun haq evaziga ijara huquqida foydalanishga beruvchi davlat organlari va tashkilotlari (keyingi o'rinlarda - ijaraga beruvchi) hamda o'ziga tutash hududda tijorat faoliyatini amalga oshirish istagini bildirgan tadbirkorlik subyekti (keyingi o'rinlarda - ijaraga oluvchi) o'rtasida Soliq qo'mitasining ijara shartnomalarini hisobga olish elektron tizimi orqali rasmiylashtiriladi;

e) tijorat faoliyatini amalga oshirish mo'ljallangan yer uchastkasi ajratilmagan hamda tuman (shahar) hokimligi zaxirasida bo'lsa, ushbu yer uchastkasi unda joylashgan obyektlarni (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, daraxtzorlar, bog'lar, sayilgohlar, xiyobonlar va boshqalar) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari qarori asosida davlat organlari va tashkilotlariga jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladi;

j) ijara shartnomasiga asosan ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga tegishli hududga tutash bo'lgan yoki undan 5 metrdan ko'p bo'lmagan masofadagi bo'sh maydonlarni tijorat faoliyatini amalga oshirish uchun auktsion savdolarisiz to'g'ridan-to'g'ri ijaraga beradi. Bunda ijaraga beriladigan maydonning yon chegaralari umumiy ovqatlanish, savdo va xizmat ko'rsatish obyekti binosining yoki unga ajratilgan yer uchastkasining boshlanish va tugash nuqtasidan binodan (yer uchastkasidan) chiqish yo'nalishidagi to'g'ri chiziq bo'yicha aniqlanadi;

z) qoida tariqasida, ijara shartnomasi bir kalendar yil uchun (kelgusi yillarda mazkur qarorda belgilangan tartibda uzaytirish huquqi bilan) tuziladi;

i) tijorat faoliyati uchun ijara huquqi asosida foydalanishga berilgan yer uchastkalarining har bir kvadrat metri uchun shartnoma muddatidan qat'i nazar, yer solig'i stavkasining uch baravarigacha miqdorida ijara to'lovi to'lanadi, bunda asos qilib olinadigan yer solig'i summasi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsiyentlari qo'llangan va soliq imtiyozlari qo'llanmagan holda hisoblanadi;

k) ijara to'lovi har yilgi yer solig'ini to'lash uchun belgilangan muddatlarda Yagona billing tizimi orqali amalga oshiriladi, tushgan to'lovlar quyidagicha taqsimlanadi:

35 foizi - ijaraga beruvchining bank hisobvarag'iga;

10 foizi - hududiy soliq boshqarmasining bank hisobvarag'iga;

10 foizi - Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmalarining bank hisobvarag'iga;

10 foizi - Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, viloyatlar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmalari hamda Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasining bank hisobvarag'iga;

0,5 foizi - Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlarini ko'rsatganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasining Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasidagi maxsus hisobvarag'iga;

qolgan mablag'lar - tuman (shahar) mahalliy budjetiga.

5. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (Madenov) har chorak yakuni bilan O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 64-moddasiga muvofiq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlarini, shu jumladan, tijorat faoliyati uchun ijaraga berish mumkin bo'lgan hududlarni saqlovchi tashkilotlarga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratish bo'yicha ishlar holati yuzasidan viloyat hokimligiga axborot kiritib borsin.

Bunda ijaraga beruvchilarga yer uchastkalarini o'zlariga jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanish huquqi asosida ajratish bo'yicha xarajatlarni mazkur qarorga asosan tushgan mablag'lar va boshqa manbalar hisobidan bir yil ichida bo'lib to'lashga ruxsat berilganligi inobatga olinsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari O.Madenov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



O.Umarov